

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASINING RIVOJI VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANISHI

**Namangan davlat universiteti talabasi
Sog‘inboyeva Shahzoda**

Annotatsiya: Ushbu maqolada istiqlol davrida o‘zbek leksikografiyasining taraqqiyoti, zamonaviy lug‘at tuzish tamoyillarining shakllanishi hamda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Global axborot makonida elektron lug‘atlar va vikipediya tipidagi onlayn manbalar yaratilishining ahamiyati, ularning tezkorlik va ommaboplik jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kompyuter lingvistikasi, informatsion-qidiruv tizimlari, tezaurus lug‘atlari va avtomatlashtirilgan lug‘atshunoslik jarayonlari haqida so‘z yuritilib, o‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalishlarning shakllanib borayotgani haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek leksikografiyasi, elektron lug‘atlar, kompyuter lingvistikasi, informatsion-qidiruv tili, tezaurus, avtomatlashtirish, zamonaviy lug‘at tuzish, tatbiqiy lingvistika.

DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN LEXICOGRAPHY AND APPLICATION OF COMPUTER TECHNOLOGIES

**Student at Namangan State University
Soginboyeva Shahzoda**

Annotation: This article covers the development of Uzbek lexicography during the period of independence, the formation of modern dictionary principles, and the possibilities of using computer technologies. The importance of the creation of electronic dictionaries and online resources such as Wikipedia in the global information space, their speed and popularity are analyzed. Also, computer linguistics, information search systems, thesaurus dictionaries, and automated lexicographic processes are discussed, and a conclusion is drawn about the formation of these areas in Uzbek linguistics.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

Keywords: Uzbek lexicography, electronic dictionaries, computer linguistics, information search language, thesaurus, automation, modern dictionary creation, applied linguistics.

Istiqlol davri o'zbek leksikografiyasi nafaqat an'anaviy, balki zamonaviy lug'at tuzish prinsiplarini ham o'zlashtirdi. Globallashuv hamda internet davrida har qanday axborotni sanoqli soniya yoki daqiqalarda qo'lga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, o'zbek lug'atshunosligi o'tgan vaqtlar davomida kitobxonlar ommasi, mutaxassislar uchun mo'ljallangan turfa tipdagi lug'atlarni nashr qilish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Ayni paytda lug'atlar yaratish borasidagi ishlar jadallik bilan davom ettirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, rivojlangan davlatlarda har qanday asarni xoh u ommaviy, xoh ilmiy bo'lishidan qat'i nazar ularga oid elektron lug'atlar tuzish, internet lug'atlari yaratish jadallik bilan taraqqiy etmoqda. Ko'plab kutubxona fondlarida saqlanayotgan turli asarlar qatori ilgari nashr qilingan lug'atlarning ham elektron nusxalarini yaratish bugungi kun tartibidan o'rin olgan. Shunga o'xshash ishlar o'zbek lug'atshunosligida ham asta-sekinlik bilan bo'lsa-da kutubxonalardan o'rin olmoqda. ¹Chunonchi, "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", "Bolalar ensiklopediyasi", "Toshkent ensiklopediyasi", "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi", "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining imlo lug'ati" va qator tarjima lug'atlar, terminologik lug'atlar va h.k.larning elektron shakllari nafaqat mutaxassislar, balki keng kitobxonlar ommasi hukmiga havola qilingan. ² Ayni paytda jahon leksikografiyasi tajribasidan o'rin olgan vikipediya lug'atlarini yaratish bo'yicha respublikada dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Mazkur lug'atlar, o'zining tezkorligi, universalligi va ommabopligi nuqtai nazaridan boshqa lug'atlardan farqlanib, kitobxonning vaqtini tejashi, so'ralgan ma'lumotni qisqa va lo'nda ifodalashi bilan ahamiyatga molikdir. Ma'lumki, tevarak-atrofdagi ma'lumot, axborot ko'p. Inson uchun bu ma'lumotlarning barchasini to'plashi va o'z xotirasida saqlashi juda mushkul ish. Shunga ko'ra inson o'ziga kerakli bo'lgan axborotlarni yig'ish va ularga ishlov berishning yo'llarini qidirishga intiladi. ³Kompyuter qurilmalari bu sohada insonga katta yordam bermoqda. Hozirgi vaqtda kompyuter yordamida tilshunos olimlar

¹ Қодирбекова Д. Ахборот технологиялари терминлари луғатини тузиш тамойиллари// Til va adabiyot ta'limi, 2013.

² Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011.

³ Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2009.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

so'zlarni bir joyga to'plash, ularga qayta ishlov berish, shu asosda turli xil lug'atlar, rubrikatorlar, glossariylar, so'zlashgichlar yaratish bilan shug'ullanmoqdalar. Umuman, atamalarni to'plash va ularga qayta ishlov berish jarayonida kelib chiqqan katta amaliy ehtiyoj tilshunoslikda kompyuter texnologiyasidan kengroq foydalanish imkoniyatlarini vujudga keltirdi⁴. Hozirgi kunga kelib fan-texnika inqilobi natijasida tinmay yog'ilib turgan materiallar, axborotlar oqimini faqat kompyuter texnologiyasi yordamidagina boshqarish mumkin bo'lib qoldi.

Tilshunoslikda kompyuter texnologiyasidan foydalanish, asosan, quyidagi yo'nalishlar uchun xizmat qilmoqda: a) mashinaviy tarjima muammolari bilan shug'ullanish; b) lug'atshunoslik ishlarini avtomatlashtirish va ixchamlashtirish; v) bibliografik ma'lumotlarni avtomatik yo'l bilan qidirish va ularga qayta ishlov berish va hokazo. Bu ishlar natijasida tilshunoslikda tatbiqiy (amaliy) lingvistika deb nomlangan yangi yo'nalish vujudga keldi. Bu yo'nalishda kompyuter lingvistikasiga ham katta o'rin ajratilgan. Yirik tilshunos olim I.V.Arnoldning fikricha, leksikografik ma'lumotlarni avtomatlashtirish, ularni to'plash va qayta ishlash natijasida bir tilli va ko'p tilli lug'atlar, glossariylar hamda konkordans (qagona muallif tomonidan yaratilgan lug'at)larning butun bir avlodini ishlab chiqildi va nashr qilindi. Hozirgi vaqtda K.Bernxart (AQSH), Dj.Lich (Angliya), Y.N.Marchuk, L.N.Belyayeva, G.G.Smirniskiy (Rossiya) kabi olimlar tilshunoslikning turli xil nazariy hamda amaliy masalalarini hal qilishda, ayniqsa lug'atshunoslikda kompyuter texnologiyasidan samarali foydalanmoqdalar.⁵⁶

Kompyuter texnologiyasidan foydalanish uchun avvalo informasion-qidiruv tili tushunchasini yaxshi tushunib olish talab qilinadi. EHMda semantik ma'lumotlarni yozib olishga va undan informatsion-qidiruv tizimida foydalanishga mo'ljallangan sun'iy mashina tili informatsion-qidiruv tili (IQT) deb yuritiladi. Tabiiy til bilan IQTni solishtirish maqsadida yaratiladigan lug'atlar informatsion-qidiruv tezaurusi deyiladi. Bunday tezauruslar ma'lum bir tilning, jumladan o'zbek tilining turli xil ideografik lug'atlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlar ana shunday ideografik lug'atlar tuzish jarayonida quyidagi operatsiyalarni kompyuter yordamida bajarmoqdalar: a) tuzilayotgan tezaurusning mavzu ko'lamini belgilab olish; b) lug'at

⁴ Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006.

⁵ Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006.

⁶ Mirtojiyev. M. —O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi||, Toshkent, 2000.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

uchun zarur bo'lgan kalit so'zlarni aniqlash va ularga ishlov berish; v) deskriptorlar orasidagi shartli ekvivalentlik hollarini belgilash; g) deskriptorlar o'rtasidagi paradigmatic munosabatlari aniqlash va ularni ochib berish; d) tezaurus lug'atni to'la shakllantirish.⁷

Xulosa qilib aytganda, istiqbol davrida o'zbek leksikografiyasi nafaqat an'anaviy lug'at tuzish tajribasini davom ettirdi, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida yangi bosqichga ko'tarildi. Kompyuter texnologiyalari lug'atshunoslik sohasida axborotlarni tezkor yig'ish, tahlil qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Elektron va onlayn lug'atlar, shuningdek, informatsion-qidiruv tizimlari o'zbek tilining ilmiy tadqiqi va amaliy qo'llanishini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Natijada, o'zbek leksikografiyasi jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar bilan hamqadam rivojlanib, zamonaviy talablar darajasida shakllanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011.
2. Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2009.
3. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006.
4. Mirtojiev. M. —O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000.
5. Қодирбекова Д. Ахборот технологиялари терминлари луғатини тузиш тамойиллари// Til va adabiyot ta'limi, 2013.
6. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.
7. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент, 2010 ва бошқалар
8. Гак В.Г. Словарь // Лингвистический энциклопедический словарь. - Москва, 1990.-С. 462.
9. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.
10. http://www.tdshi.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=205&Itemid=128
11. <http://www.nokia.uz/uz/about/pressrel/1518.htm>
12. <http://ru.wikipedia.org/wiki>

⁷ Қодирбекова Д. Ахборот технологиялари терминлари луғатини тузиш тамойиллари// Til va adabiyot ta'limi, 2013.